

Received: 5 September 2026 Accepted: 10 September 2026 Published: 11 September 2026

Vol. 5 • No. 9 • 2026

“YASHIL” IQTISODIYOTNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O‘RNI

Abdisheripov Boburbek

Ma'mun universiteti xalqaro talabalar bo'limi mutaxassisi

E-mail: a.boburbek2004@gmail.com

DOI: 10.5281/zenodo.22701374

ABSTRACT: Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy-uslubiy asoslari va uning O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillarda mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining to‘rtta ustuvor yo‘nalishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda 2030-yilgacha erishilishi kutilayotgan miqdoriy indikatorlari ko‘rib chiqilgan. Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va Singapur kabi mamlakatlarning xalqaro tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, mavzu bo‘yicha mahalliy iqtisodchilarning tadqiqotlariga sharh berilib, mavjud ilmiy adabiyotlardagi bo‘shliqlar aniqlangan. Strategiyaning 2025–2026-yillardagi amalga oshirilish dinamikasi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida baholangan, xususan qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining o‘sish sur’ati tahlil qilingan

Keywords: “yashil” iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, iqlim o‘zgarishi, energiya samaradorligi, “yashil” moliyalashtirish, “yashil” strategiya, xalqaro tajriba, ekologik barqarorlik, kam uglerodli rivojlanish

XXI asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitga antropogen bosimning kuchayishi jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning an’anaviy modelidan resurs va energiya jihatidan samarali, kam uglerodli “yashil” taraqqiyot modeliga o‘tishni ob’ektiv zaruratga aylantirdi. O‘zbekiston Respublikasi ham 2015-yilda qabul qilingan Parij iqlim bitimiga qo‘shilgan va 2030-yilga qadar issiqxona gazlari ajratmalarini yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan qisqartirish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan davlat sifatida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini izchil joriy etib bormoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda “yashil” iqtisodiyot deganda, an’anaviy iqtisodiy o‘tish bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zararli ta’sirni minimallashtirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Ushbu tushuncha resurs samaradorligi, kam uglerodli rivojlanish va inklyuziv (barqaror) o‘tish tamoyillarini o‘zida mujassam etadi.

PQ-4477-son qarorga asosan tasdiqlangan Strategiyada ta’kidlanishicha, iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga “iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish” orqali erishish lozim. Bu yondashuv “yashil” iqtisodiyotni nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy kategoriya sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Strategiyada belgilangan asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik;
- resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste’mol va ishlab chiqarish;
- iqtisodiy hisob-kitob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishda “yashil” vositalarni qo‘llash ustuvorligi;
- raqobatbardoshlikni oshirish, “yashil” ish o‘rinlari yaratish orqali makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;
- resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash.

Ushbu tamoyillar “yashil” iqtisodiyotning uchta o‘zaro bog‘liq ustunga — iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatga — tayanishini ko‘rsatadi.

Jahon amaliyotida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish turli mamlakatlarda o‘ziga xos yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Germaniya va Yevropa Ittifoqiga a’zo boshqa davlatlarda “Energiewende” (energetik o‘tish) siyosati orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energiya balansidagi ulushi izchil oshirib borilmoqda. Janubiy Koreya “Yashil o‘tish” (Green Growth) strategiyasini milliy rivojlanish modeli darajasiga ko‘targan birinchi davlatlardan biri hisoblanadi. Xitoy va Singapur tajribasida esa “yashil” shaharsozlik, yashil

moliyalashtirish (green bonds) va energiya samaradorligi standartlari muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Strategiyasida ham xalqaro tajribaga tayanilgan holda, "yashil" kreditlash va venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish, "yashil" fondlar va energiya tejamkorligi maxsus fondlarini yaratish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Yashil iqlim jamg'armasi, Moslashish jamg'armasi va boshqa xalqaro moliya institutlari resurslarini jalb qilish imkoniyatlari nazarda tutilgan.

Metodologiya: Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan Strategiya matni hamda lex.uz, stat.uz, openbudget.uz va imv.uz rasmiy manbalari asosida kontent-tahlil va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalangan holda amalga oshirildi: Strategiyada belgilangan 2030-yilgi maqsadli indikatorlar 2025–2026-yillardagi rasmiy statistik ko'rsatkichlar bilan solishtirilib, xalqaro tajriba (Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur) qiyosiy-mamlakatlar (benchmarking) yondashuvi asosida tahlil qilindi.

Natijalar: Strategiyaning uchinchi bobida to'rtta ustuvor yo'nalish belgilangan. Birinchi yo'nalish — iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari (elektr energetika, issiqlik energetikasi, neft-gaz va kimyo sanoati) energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlab turgan elektr stansiyalarini yuqori samarali texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, magistral tarmoqlarni takomillashtirish, hamda uglevodorod resurslari yo'qotilishini nazorat qiluvchi zamonaviy texnologiyalarni (SCADA) joriy etish nazarda tutilgan.

Ikkinchi yo'nalish energiya resurslari iste'molini diversifikatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya

manbalaridan (quyosh, shamol, biogaz) foydalanishni kengaytirishga qaratilgan bo'lib, bunda tarif siyosatini takomillashtirish, yangi quvvatlarni Yagona elektr energetika tizimiga integratsiya qilish hamda binolarda energiya samarador standartlarni joriy etish ko'zda tutilgan.

Uchinchi yo'nalish iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni qamrab olib, suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish hamda Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yumshatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. To'rtinchi yo'nalish esa "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarni — institutsional asoslar, normativ-huquqiy baza, ta'lim va fanga integratsiya, salohiyatni oshirish hamda investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashni — shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu to'rt yo'nalishning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi shundan iboratki, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish bo'yicha texnik islohotlar tegishli moliyaviy va institutsional mexanizmlar (uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlar) mavjud bo'lgandagina barqaror natija berishi mumkin. Demak, Strategiyaning muvaffaqiyati uning barcha yo'nalishlari bo'yicha muvozanatli ilgarilash darajasiga bog'liq.

Strategiyaning beshinchi bobida uning amalga oshirilishi natijasida 2030-yilga borib erishilishi kutilayotgan miqdoriy ko'rsatkichlar aniq belgilangan. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan bo'lib, ular "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonining o'lchanadigan natijalarini tashkil etadi.

1-jadval.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining 2030-yilga mo'ljallangan miqdoriy maqsadlari

2030-yilga borib erishilishi kutilayotgan ko'rsatkich	Miqdoriy maqsad
Issiqxona gazlarining YaIM birligiga nisbatan solishtirma ajratmalari (2010-yil darajasiga nisbatan)	35 foizga qisqartirish
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvati	15 GVt ga oshirish
QTEM ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida	30 foizdan ortiq
Sanoat sohasida energiya samaradorligi	kamida 20 foizga oshirish
YaIM birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmi	30 foizga kamaytirish
Suv tejovchi sug'orish texnologiyasi joriy etilgan maydon	1 mln. gektargacha
Shahar hududlaridagi yashil maydonlarning kengayishi	30 foizdan ortiq
Ko'chatlar umumiy soni (yiliga 200 mln. dona ekish hisobiga)	1 mlrd.dan ortiq
Respublika o'rmon fondi zaxiralari	90 mln. kub metrdan ortiq

2030-yilga borib erishilishi kutilayotgan ko'rsatkich	Miqdoriy maqsad
Yangi chiqindi to'plash shoxobchalari (hududlarda)	600 ta

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori, 1-ilova, 5-bob, 25-band asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, belgilangan ko'rsatkichlar nafaqat energetika sohasini, balki suv, o'rmon xo'jaligi va kommunal xo'jalikni ham qamrab olgan kompleks tizimni tashkil etadi. Bu, o'z navbatida, "yashil" iqtisodiyotga o'tishning tarmoqlararo, ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, 25-bandning to'qqizinchi xatboshisi Prezidentning 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son Farmoniga asosan yangilangani islohotlarning davomiy va moslashuvchan xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Strategiyaning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi doirasida "yashil" kreditlash va venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish, "yashil" fondlar hamda energiya tejamlorligi maxsus fondlarini yaratish, xususiy sektorni "yashil" loyihalarni moliyalashtirishga jalb qilish va bank tizimini "yashil" investitsiyalarga rag'batlantirish, shuningdek, fiskal siyosat vositalari orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, Strategiyaning amalga oshirish uchun Yashil iqlim jamg'armasi, Moslashish jamg'armasi hamda iqlim bilan bog'liq boshqa xalqaro resurslar, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining kredit va grantlarini jalb qilish imkoniyati nazarda tutilgan. Bu esa milliy byudjet resurslariga qo'shimcha ravishda xalqaro moliyaviy oqimlarni "yashil" loyihalar uchun safarbar etish imkonini beradi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Markaziy bank ma'lumotlari, shuningdek, Davlat byudjeti ochiqdigi portali (openbudget.uz) kabi rasmiy manbalar asosida bu jarayonlarning dinamikasini yanada chuqur miqdoriy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

"Yashil" iqtisodiyot muammosi so'nggi yillarda mahalliy iqtisodchilar tomonidan faol o'rganilmoqda, biroq mavjud tadqiqotlarda turlicha uslubiy yondashuvlar kuzatiladi.

O'zbekiston iqtisodchilarning fikrlariga ko'ra O'zbekistonning iqtisodiyotga o'tish istiqbollari muammoli yondashuv asosida tahlil qilinadi - mavjud iqtisodiyotdagi tizimli muammolar aniqlanib, sohalar kesimida takliflar ishlab chiqiladi. Bu ish amaliy tavsiyalar

bilan boy bo'lsa-da, unda Strategiyaning 2030-yilgi miqdoriy indikatorlari (masalan, QTEM ulushi yoki energiya sarfini qisqartirish ko'rsatkichlari) bilan bevosita bog'liq holda baholanmaydi, ya'ni tavsiyalar ko'proq deklarativ xarakterga ega.

Muhokama: Yuqorida keltirilgan tahlil asosida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish borasidagi yutuqlari, xususan energetika sohasida, rasmiy statistik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlangan sezilarli ilgarihlarni namoyon etmoqda — biroq, fikrimizcha, bu progress hozircha bir tomonlama xarakterga ega. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jadal rivojlanishi asosan davlat tomonidan yirik infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hisobiga ta'minlanmoqda, holbuki Strategiyaning muvaffaqiyati, bizingcha, aynan tarmoqlararo muvozanatga bog'liq. Suv xo'jaligi, chiqindilarni boshqarish va o'rmon xo'jaligi kabi yo'nalishlarda shunga o'xshash ochiq va muntazam monitoring tizimining yo'qligi ushbu sohalaridagi real ilgarihlarni baholashni qiyinlashtiradi va, ehtimol, ularning energetika sektoriga nisbatan orqada qolayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, muallifning nazarida, hozirgi bosqichda "yashil" iqtisodiyotga o'tish ko'proq yirik davlat va xorijiy investitsiyalar hisobiga ta'minlanayotgan bo'lib, xususiy sektor va aholi darajasidagi ishtirok (masalan, kichik biznesning "yashil" texnologiyalarni joriy etishi yoki uy xo'jaliklarining energiya tejamlor amaliyotlarga o'tishi) hali yetarlicha rag'batlantirilmagan. Shu bois, Strategiyaning keyingi bosqichlarida moliyaviy mexanizmlarni nafaqat yirik loyihalarga, balki mikro va kichik darajadagi "yashil" tashabbuslarga ham yo'naltirish, hamda barcha to'rtta ustuvor yo'nalish bo'yicha bir xil shaffoflik va hisobdorlik standartlarini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, "yashil" iqtisodiyot O'zbekiston uchun nafaqat xalqaro majburiyatlarni bajarish vositasi, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, energiya xavfsizligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlovchi strategik rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori (PQ-4477-son qarorga kiritilgan o'zgartirishlar).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi — lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti — stat.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ochiqqligi portal — openbudget.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti — imv.uz.
8. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz / IHMA markazlari ma'lumotlari — ihma.uz.
9. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro mehnat tashkilotining "yashil" iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo'yicha tahliliy hisobotlari.
10. Sherjonov Sh.A. Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyaviy siyosatining ahamiyati // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. – 2025. – №12. – B. 1689–1696